O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

KO‘P TILLI PARALLEL KORPUSNING TARJIMA BIRLIKLARINI QIYOSIY O‘RGANISHDAGI IMKONIYATLARI

THE POSSIBILITIES OF MULTILINGUAL PARALLEL CORPORA FOR THE COMPARATIVE STUDY OF TRANSLATION UNITS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/KBMZ1095

Muhammadiyeva Dilafruz Axtamovna
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
e-pochta: d.muhammadiyeva@mail.ru
ORCID ID:https://orcid.org/0000-0001-6761-462X

Abstract. *This article examines the possibilities of analyzing translation units from linguistic and translation studies perspectives using a multilingual parallel corpus based on the Uzbek, Turkish, and Kazakh texts of Baburnama. It analyzes the lexical-semantic, grammatical, syntactic, phraseological, and linguocultural features of translation units and identifies cases of correspondence and divergence between the source text and its translations. The examples illustrate the rendering of historical vocabulary through modern equivalents, shifts in meaning, the splitting or merging of sentences, and the annotation of omitted segments in a corpus. The article also proposes principles for the multilayer annotation of translation units and the digital representation of the relationships among them.*

Keywords: *multilingual parallel corpus, translation unit, translation equivalence, lexical-semantic transformation, syntactic alignment, historical vocabulary, linguocultural unit, Baburnama.*

Parallel korpuslar turli tillarda yaratilgan, mazmunan bir-biriga mos matnlarni o‘zaro bog‘langan holda saqlash va ularni birgalikda tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi. Ular tarjima jarayonida bir til birligining boshqa tilda qanday ifodalanishini, bunda qanday ma’no va shakl o‘zgarishlari yuz berishini aniqlashga yordam beradi. Biroq manba matn bilan tarjima o‘rtasidagi munosabatni faqat so‘zlarning lug‘aviy muqobilligi asosida baholab bo‘lmaydi. Tarjimada birlikning grammatik shakli, gapdagi vazifasi, uslubiy bo‘yog‘i va matn doirasida anglatgan ma’nosi ham o‘zgarishi mumkin. Shu bois tarjima

birliklarini o‘rganishda ularning matndagi qo‘llanishi va kontekst bilan bog‘liq xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Ko‘p tilli parallel korpus bir manba matnning turli tillardagi tarjimalarini o‘zaro solishtirish va tarjimonlar tanlagan ifoda vositalarini aniqlash uchun keng material beradi. Bir tarjimada muayyan so‘z yoki birikma qanday ifodalangan bo‘lsa, boshqa tarjimada uning qanday vosita bilan berilganini kuzatish mumkin. Bunday tahlil tarjimalarda takrorlanadigan usullarni, shuningdek, tarjimonlarning individual tanlovlarini farqlashga yordam beradi. Aniqlangan holatlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari esa ayrim tarjima usullarining qanchalik tez-tez qo‘llanishini belgilash imkonini beradi. Bu jihatlar, ayniqsa, tarixiy-badiiy asarlar tarjimasini o‘rganishda muhimdir. Tarixiy matnlardagi ayrim so‘z va iboralar bugungi kunda iste’moldan chiqqan yoki ma’nosi o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, muayyan davrga xos tushuncha va voqeliklarni boshqa til vositalari bilan ifodalash tarjimondan qo‘shimcha izoh yoki muayyan uslubiy yechimni talab etadi. Shu sababli bunday matnlar tarjimasini o‘rganishda so‘zlarning muqobilligini aniqlash bilan cheklanmay, ularning tarixiy va madaniy mazmuni tarjimalarda qay darajada saqlanganini ham tekshirish lozim.

Tarjimashunoslikda korpus metodlaridan foydalanishning nazariy asoslari Mona Bakerning tadqiqotlarida izchil yoritilgan. Olimaning 1993-yilda chop etilgan maqolasida korpus lingvistikasi metodlaridan tarjimani empirik asosda o‘rganishda foydalanish masalasi ko‘tarilgan [Baker, 1993: 279]. Baker tarjima matnlarini alohida misollar yoki nazariy mulohazalar bilangina emas, balki tizimli ravishda to‘plangan va tahlilga tayyorlangan til materiali asosida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Uning 1995-yilda e’lon qilingan maqolasida esa korpusga asoslangan tarjimashunoslikning metodologik masalalari, korpuslarni shakllantirish tamoyillari va ularni tahlil qilish imkoniyatlari muhokama qilinadi [Baker, 1995: 471]. Ushbu yondashuv tarjima matnlaridagi muntazam kuzatiladigan xususiyatlarni aniqlash bilan birga, korpus materialidan foydalanishda yuzaga keladigan metodologik cheklovlarni ham hisobga olishni talab etadi.

Jörg Tiedemannning ishlari parallel matnlarni raqamli muhitda birlashtirish va ulardan foydalanish masalalarini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega [Tiedemann, 2012]. Uning tadqiqotlarida turli tillardagi matnlarni o‘zaro bog‘lash, ularni qayta ishlash vositalaridan foydalanish hamda lingvistik ma’lumotlar bilan boyitish masalalari yoritilgan. Bu qarashlar ko‘p tilli parallel korpusni nafaqat tarjimalarni yonma-yon joylashtiruvchi elektron to‘plam, balki

turli tillardagi matn birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni izchil o‘rganishga xizmat qiladigan ilmiy manba sifatida shakllantirish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boburnoma korpusiga aniqroq bog‘langTurkiy tillar o‘rtasidagi parallel ma’lumotlar bazalarini yaratish borasida KazParC loyihasi ham muhim misol hisoblanadi. Yeshpanov, Polonskaya va Varolning “KazParC: Kazakh Parallel Corpus for Machine Translation” (2024) maqolasida qozoq, ingliz, rus va turk tillari o‘rtasidagi mashina tarjimasi uchun mo‘ljallangan parallel korpus taqdim etilgan. Mualliflar turli sohalarni qamrab olgan, inson tarjimonlari ishtirokida tayyorlangan 371 902 ta parallel gapdan iborat resursni tavsiflaydi (Yeshpanov, 2024). KazParC tajribasi qozoq va turk tillari qatnashgan parallel resurslarni yaratish hamda ulardan tarjima texnologiyalarida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Biroq ushbu korpusning asosiy yo‘nalishi mashina tarjimasi uchun ma’lumotlar tayyorlash bo‘lsa, “Boburnoma” asosidagi korpusda tarixiy-badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlash, turli nashr va tarjimalarni hisobga olish, tarixiy leksikani kontekstda izohlash hamda tarjima muvofiqligini lingvistik jihatdan tahlil qilish vazifalari ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilshunosligidagi korpusga doir izlanishlar ham matnlarni tizimlashtirish, lingvistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish va avtomatik tahlil qilish uchun zarur ilmiy asosni yaratgan.

“Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha matnlari tarjima birliklarini ko‘p tilli muhitda o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Asarning turli tillardagi nashrlari o‘rtasida leksik tanlov, tarixiy atamalarni ifodalash, turg‘un birikmalarni tarjima qilish va gap qurilishini qayta tashkil etish bilan bog‘liq farqlar mavjud. Ushbu farqlarni tizimli ravishda aniqlash tarjima sifatini baholash bilangina cheklanmay, parallel korpusning lingvistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun ham zarur.

“Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha matnlari misolida tarjima birliklarini tahlil qilishda ko‘p tilli parallel korpusning ilmiy imkoniyatlarini asoslash, tarjima muvofiqligining asosiy ko‘rinishlarini tasniflash va ularni korpusda ifodalash tamoyillarini belgilashdan iborat.

Ko‘p tilli parallel korpus va tarjima birliklarini o‘rganish. Tarjima birligi manba matnning tarjimada muayyan mazmuniy yoki funksional muvofiqlik orqali ifodalangan qismi sifatida qaralishi mumkin. Uning hajmi tadqiqot maqsadi va matnning xususiyatiga qarab belgilanadi: u alohida leksema, so‘z birikmasi, frazeologik birlik, gap yoki kengroq kontekstual parcha bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun tarjima birliklarini faqat so‘z darajasida aniqlash tarixiy matnlarning mazmuniy va sintaktik xususiyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Masalan, “Boburnoma”dagi **“Muxtasar viloyattur, oshlig‘ va mevasi farovon”** jumlasi turkcha tarjimada ikki gap orqali ifodalangan: *“Küçük bir vilâyettir. Hububat ve meyvası boldur.”* Asliyatdagi bitta gap tarjimada ikki mustaqil gapga ajralgan bo‘lsa-da, ularning mazmuniy munosabati saqlangan. Bu holat tarjima birliklarining gaplararo mosligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur misolda so‘zma-so‘z moslikdan ko‘ra mazmuniy va strukturaviy muvofiqlik muhim. Agar korpusda faqat gaplarning tartib raqamiga asoslangan birma-bir moslashtirish qo‘llansa, asliyatdagi bitta gap tarjimadagi ikkita gap bilan bog‘lanmay qolishi mumkin. Shu sababli parallel korpusning moslashtirish tizimi **1**:1, 1, n:1 hamda tarjimada muqobili mavjud bo‘lmagan holatlarni ham qayd eta olishi lozim.

Ko‘p tilli korpusning imkoniyati shundaki, unda tarjima birliklari birgina juftlik doirasida emas, bir nechta tarjima matni asosida tekshiriladi. Natijada muayyan birlikning turli tillarda qanday ifodalangani, tarjimonlar qaysi leksik va grammatik vositalarni tanlagani hamda mazmunning qaysi jihatlari saqlangan yoki o‘zgargani aniqlanadi.

Tarjima birliklarining leksik-semantik muvofiqligi. Tarjima birliklarini o‘rganishda muhim yo‘nalishlardan biri asliyatdagi leksemaning tarjimada qanday ma’no bilan ifodalanishini aniqlashdir. Bunda lug‘aviy muqobillik bilan kontekstual muvofiqlikni farqlash talab etiladi. Bir so‘zning tarjimada yaqin ma’noli birlik orqali berilishi har doim ham asliyatdagi semantik belgilar to‘liq saqlanganini anglatmaydi. “Boburnoma”dagi “*Ravon savodi bor edi*” [b. 7b] jumlasi qozoqcha tarjimada “*Анық сауатты болған*” shaklida berilgan. Bu o‘rinda *ravon* birligining *анық* bilan ifodalanishi asliyatdagi mazmunni aynan saqlash masalasini yuzaga keltiradi. Tarjima natijasida shaxsning savodxonligi haqidagi ma’lumot boshqa semantik urg‘u bilan berilishi mumkin. Demak, korpusda faqat lug‘aviy muqobilni qayd etish emas, uning kontekstdagi ma’nosini ham belgilash zarur.

Mazkur hodisani korpusda quyidagi belgilar orqali tavsiflash mumkin:

- leksik muvofiqlik – asliyat birligining tarjimada mazmunan mos birlik bilan ifodalanishi;
- qisman semantik muvofiqlik – asosiy mazmun saqlangan holda ayrim ma’no belgilari o‘zgarishi;

• semantik siljish – tarjima birligida asliyatdagi ma’noga nisbatan boshqa mazmuniy urg‘u yuzaga kelishi;

• izohlovchi tarjima – tarixiy yoki madaniy birlikning ma’nosi tavsifiy birikma orqali ochilishi;

• transliteratsiya yoki o‘zlashtirilgan shaklni saqlash – manba birlikning shaklini tarjima matnida saqlash.

Ushbu tasnif tarjima muqobillarini tizimlashtirish bilan birga, semantik o‘zgarishlarni matn kontekstida tahlil qilishga ham yordam beradi.

Tarixiy leksikaning tarjimasi bu masalaning alohida ko‘rinishidir. Masalan, asliyatdagi **“haram”** so‘zi qozoqcha matnda **“*әйелдер сарайы*”** (“ayollar saroyi”) birikmasi bilan berilgan: *“Bir yil, bir yarim yildin so‘ng haramdin chiqardilar” – “Бір-бір жарым жылдан соң оны әйелдер сарайынан шығарды”.* Tarjimada birlikning umumiy mazmuni izohlangan bo‘lsa-da, *haram* so‘zining tarixiy-madaniy konnotatsiyasi bevosita shaklda saqlanmagan. Bu misol parallel korpusda tarixiy birlikning kamida ikkita belgisini qayd etish lozimligini ko‘rsatadi: birinchisi – asliyatdagi asl shakl va uning tarixiy mazmuni; ikkinchisi – tarjimada qo‘llangan muqobil va uning izohlovchi xususiyati. Bunday yondashuv keyinchalik tarixiy tarjima lug‘atini shakllantirishda ham qo‘l keladi.

Lingvomadaniy birliklar va atoqli nomlarning tarjimasi. Tarixiy matnlarning muhim xususiyatlaridan biri muayyan davrning madaniy, ijtimoiy va geografik tasavvurlarini aks ettiruvchi birliklarning ko‘pligidir. Bunday birliklarni tarjima qilishda ularning denotativ ma’nosini berish bilan birga, tarixiy nomlanish va madaniy mansublikni saqlash masalasi ham yuzaga keladi. “Boburnoma”dagi “*sebi Samarqand*” va “*anori Xo‘jand*” birikmalari qozoqcha tarjimada “*Самарқанд алмасы*” va “*Хожәнд анары*” shaklida berilgan. Ushbu tarjimada birikmalarning umumiy mazmuni tushunarli bo‘lsa-da, asliyatdagi nomlash xususiyati – mahsulotning muayyan joy nomi bilan tarixiy-madaniy bog‘liqligi – boshqa shaklda ifodalangan.

Bunday birliklarni tahlil qilishda quyidagi jihatlar muhim:

1.birlikning asliyatdagi shakli va tuzilishi;

2.uning tarixiy yoki geografik referenti;

3.tarjimada shaklning saqlanishi, o‘zgarishi yoki izohlanishi;

4.tarjima natijasida atoqli nomlik xususiyatining saqlanish darajasi;

5.o‘quvchi uchun tushunarlilik va tarixiy kolorit o‘rtasidagi munosabat.

Mazkur misollar tarjima birliklarini faqat leksik ekvivalentlar asosida tasniflash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Korpusda lingvomadaniy belgi ham

alohida qayd etilsa, tarjimonning tarixiy nom va tushunchalarni berish strategiyasini tizimli tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Frazeologik birliklar va tarjima transformatsiyalari**.** Tarixiy matnlar tarkibidagi frazeologik va paremiologik birliklar tarjima jarayonida alohida yondashuvni talab qiladi. Chunki bunday birliklarning mazmuni tarkibidagi alohida so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari yig‘indisidan kengroq bo‘lishi mumkin. Ularni boshqa tilga o‘girishda shakliy muvofiqlikdan ko‘ra kontekstual mazmunni saqlash ustuvor bo‘lishi ehtimol. “Boburnoma”ning qozoqcha tarjimasida **“***shikast berib***”** birligi *“жеңіп”* (“yengib”), *“kishi saxlasa bo‘lur”* birikmasi esa *“кісіні қамтамасыз етер еді”* (“kishini ta’minlar edi”) shaklida ifodalangan. Bu misollar tarjimada manba birlikning shakli o‘zgargan holda mazmuniy talqin yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Bunday holatlarni korpusda oddiy leksik almashtirish sifatida belgilash har doim ham yetarli emas. Tahlilda birlikning turg‘unlik darajasi, kontekstdagi vazifasi va tarjimada qanday transformatsiyaga uchragani ham hisobga olinishi kerak. Alohida e’tibor talab qiladigan yana bir misol – *“Ul fataratta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxong‘a tushub edi”* jumlasidagi *tushub edi* birligining qozoqcha tarjimada *“қолына түсті”* shaklida berilishidir. Mazkur o‘rinda tarjimon harakatni so‘zma-so‘z ifodalashdan ko‘ra, kontekstda yuz bergan voqeani anglatadigan birikmani tanlagan. Shu bilan birga, *tushmoq* fe’lining ma’nosi kontekstga qarab turlicha talqin qilinishi mumkinligi sababli, korpusdagi annotatsiya ushbu birlikning aynan shu matndagi ma’nosini ko‘rsatishi zarur. Demak, frazeologik birliklarni tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlarni belgilash maqsadga muvofiq:

- asliyatdagi birlikning turi;
- kontekstual ma’nosi;
- tarjimada qo‘llangan muqobil;
- transformatsiya turi;
- shakliy va mazmuniy muvofiqlik darajasi;
- uslubiy ta’sir va tarixiy kontekstning saqlanishi.

Bunday annotatsiya tarjima variantlarini o‘zaro taqqoslash, ma’no o‘zgarishlarini aniqlash va muayyan transformatsiyalarning qo‘llanish chastotasini hisoblash imkonini beradi.

Grammatik va sintaktik muvofiqlik: tarjimada mazmunning o‘zgarishi. Tarjima birliklarining shakliy o‘zgarishi ayrim hollarda mazmuniy natijaga ham ta’sir qiladi. Ayniqsa, grammatik nisbat, gap bo‘laklari munosabati va harakat

bajaruvchisining ifodalanishi tarixiy matn tarjimasida muhim ahamiyatga ega. “Boburnoma”dagi **“***Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog‘da paydo bo‘ldi”* jumlasi qozoqcha tarjimada *“Омар шейх мырза өмірінің соңғы кездерінде осы таудан ақ, қызыл жолақты тас тапқан”* shaklida berilgan. Asliyatda toshning paydo bo‘lishi majhul yoki bajaruvchisi aniq ko‘rsatilmagan konstruksiya orqali ifodalangan bo‘lsa, tarjimada *тапқан* (“topgan”) fe’li harakat bajaruvchisini Umarshayx mirzo bilan bog‘lash imkonini yuzaga keltiradi. Natijada tarixiy voqea haqidagi xabarning mazmuni o‘zgarishi mumkin. Bu misol grammatik transformatsiyani faqat sintaktik shakl almashinuvi sifatida baholash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Korpusda nisbat shakllari, harakat bajaruvchisi va predikativ munosabatlar bo‘yicha belgilash kiritilsa, tarjimada yuzaga kelgan mazmuniy siljishlarning sababini aniqroq ko‘rsatish mumkin.

Tarjima jarayonida gaplarning strukturaviy o‘zgarishi ham kuzatiladi. Yuqorida keltirilgan *“Muxtasar viloyattur, oshlig‘ va mevasi farovon”* jumlasining turkcha tarjimada ikkita gap bilan berilishi shunday holatdir. Boshqa tomondan, asliyatdagi bir nechta gap tarjimada bitta gapga birlashtirilishi ham mumkin. Shuning uchun parallel korpusda gap chegaralarining har doim bir-biriga mos kelishini talab qilish to‘g‘ri emas.Mazkur muammoni hal qilish uchun tarjima matnlarini gaplar bilan bir qatorda mazmuniy jihatdan yaxlit frazalarga ajratish, so‘ngra ularni o‘zaro bog‘lash maqsadga muvofiq. Bunda asliyatdagi bitta gap tarjimadagi bir nechta gap bilan yoki aksincha, bir nechta gap bitta tarjima birligi bilan bog‘lanishi mumkin. Ushbu munosabat korpusda alohida moslashtirish turi sifatida qayd etilishi kerak.

Tarjimada tushirib qoldirilgan birliklar va korpusning qayd imkoniyatlari. Ko‘p tilli parallel korpusning muhim vazifalaridan biri faqat mavjud muqobillarni emas, tarjimada aks etmagan birliklarni ham aniqlashdir. Chunki tarjimada tushirib qoldirish, qisqartirish yoki ayrim mazmuniy qismlarning boshqa gap tarkibida berilishi asliyat va tarjima o‘rtasidagi munosabatni baholashga ta’sir qiladi. Tahlil qilingan materialda *“Yunusxon o‘g‘lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi”* jumlasi turkcha va qozoqcha tarjimalarda ifodalanmagan. Bunday holatda korpusda mazkur segmentni oddiy bo‘sh katak sifatida qoldirish o‘rniga, uning tarjimada aks etmaganini maxsus belgi bilan qayd etish zarur. Bu yondashuv bir necha jihatdan ahamiyatli. Birinchidan, tarjima matnining to‘liqligini tekshirish mumkin bo‘ladi. Ikkinchidan, tushirib qoldirish holatlarini tasodifiy texnik nomuvofiqliklardan farqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Uchinchidan, bunday

holatlarning qaysi birliklarda – masalan, atoqli nomlar, tarixiy ma’lumotlar, tavsifiy jumlalar yoki takroriy mazmunlarda – ko‘proq uchrashini aniqlash mumkin.

Korpusda quyidagi holatlarni alohida belgilash tavsiya etiladi:

- tarjimada to‘liq aks etgan birlik;
- qisman aks etgan birlik;
- tarjimada tushirib qoldirilgan birlik;
- boshqa segment tarkibiga birlashtirilgan birlik;
- asliyatda mavjud bo‘lmagan qo‘shimcha birlik;
- moslashtirishda noaniqlik mavjud bo‘lgan birlik.

Bunday tasnif tarjima matnlarini tahlil qilishda dalillarning tekshiriluvchanligini oshiradi va avtomatik moslashtirishdan keyingi qo‘lda tekshirish jarayonini yengillashtiradi.

Tarjima birliklarini ko‘p qatlamli annotatsiyalash modeli. “Boburnoma”ning uch tildagi matnlarini tahlil qilish natijalari tarjima birliklarini yagona belgi bilan tavsiflash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Masalan, bir birlik leksik jihatdan muvofiq bo‘lishi, biroq grammatik shakli o‘zgarishi mumkin. Yoki tarixiy atama mazmunan izohlangan bo‘lsa-da, uning davrga xos madaniy belgisi tarjimada to‘liq saqlanmasligi mumkin. Shu sababli korpusda ko‘p qatlamli annotatsiya tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan model quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Annotatsiya qatlami	**Qayd etiladigan ma’lumot**
Manba ma’lumotlari	Nashr, tarjimon, nashr yili, matn varianti va sahifa
Matn birligi	Bob, xatboshi, gap yoki fraza identifikatori
Leksik qatlam	Asliyat shakli, lemma va tarjimadagi muqobil
Semantik qatlam	Kontekstual ma’no, ma’no siljishi, kengayish yoki torayish
Grammatik qatlam	So‘z turkumi, morfologik shakl, nisbat va sintaktik vazifa
Tarjima transformatsiyasi	Almashtirish, izohlash, qayta qurish, tushirib qoldirish yoki qo‘shish
Lingvomadaniy qatlam	Tarixiy atama, realiya, atoqli nom va madaniy kontekst

Moslashtirish qatlami	1:1, 1, n:1 yoki tarjima muqobili mavjud emasligi
Ishonchlilik belgisi	Avtomatik moslashtirish natijasi, qo‘lda tekshirish holati va izoh

Jadvaldagi qatlamlar bir-biridan ajratilgan holda emas, o‘zaro bog‘langan tarzda ishlashi kerak. Masalan, *haram* birligi uchun asliyatdagi shakl, qozoqcha tarjimadagi *әйелдер сарайы* muqobili, tarixiy-madaniy belgi va izohlovchi tarjima turi bir yozuv doirasida bog‘lanadi. *“Yunusxon o‘g‘lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi”* jumlasi esa tarjimada aks etmagan segment sifatida belgilanib, uning manba identifikatori saqlanadi. Bunday tizim tarjima birliklarini alohida misollar sifatida yig‘ishdan ko‘ra, ularning o‘zaro munosabatlarini tekshiriladigan va qayta ishlash mumkin bo‘lgan raqamli ma’lumot shaklida saqlashga xizmat qiladi.

Korpus asosida statistik tahlil o‘tkazish imkoniyatlari. Ko‘p tilli parallel korpusning afzalliklaridan biri kuzatilgan tarjima hodisalarini miqdoriy jihatdan tavsiflash imkoniyatidir. Buning uchun avvalo tahlil qilinadigan birliklar va hisoblash mezonlari aniq belgilanishi kerak. Masalan, leksik muvofiqlik, semantik siljish, izohlovchi tarjima, sintaktik qayta qurish va tushirib qoldirish holatlari alohida teglansa, har bir hodisaning korpusdagi ulushini hisoblash mumkin. Bunda mutlaq sonlar bilan birga nisbiy ko‘rsatkichlarni ham berish muhim. Chunki turli tarjima matnlarining hajmi bir xil bo‘lmasligi mumkin. Hodisaning mutlaq soni tarjima matnining uzunligiga bog‘liq bo‘lsa, nisbiy ko‘rsatkichlar matnlararo taqqoslash uchun aniqroq asos yaratadi.

Tarjima birliklarini ko‘p tilli parallel korpus asosida o‘rganishning ilmiy qiymati tarjimalar orasidagi farqlarni qayd etish bilangina belgilanmaydi. Asosiy natija turli sathlarda kuzatilgan hodisalarni yagona tahlil tizimida birlashtirish, ularning manba matn bilan munosabatini ko‘rsatish va tekshirish mumkin bo‘lgan raqamli shaklda ifodalashdan iborat. “Boburnoma” materiallari asosida taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy-amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1.Tarjima muvofiqligining ko‘p qatlamli modeli. Leksik, semantik, grammatik, sintaktik va lingvomadaniy belgilarni bitta tizim doirasida o‘zaro bog‘lash imkoniyati yaratiladi.

2.Tarjima transformatsiyalarini izchil belgilash. Ma’no o‘zgarishi, izohlovchi tarjima, sintaktik qayta qurish va tushirib qoldirish kabi hodisalar yagona mezonlar asosida qayd etiladi.

3.Tarixiy birliklarning tarjimadagi holatini kuzatish. Asliyat shakli, zamonaviy muqobil va tarixiy-madaniy izoh o‘zaro bog‘lanadi.

4.Ko‘p tilli matnlarni moslashtirishning murakkab holatlarini aks ettirish. Bitta gapning bir nechta gap orqali tarjima qilinishi yoki ayrim segmentlarning tarjimada ifodalanmasligi kabi holatlar korpus tuzilmasida hisobga olinadi.

5.Statistik va leksikografik tadqiqotlar uchun ma’lumot tayyorlash. Korpusda jamlangan tekshirilgan misollar tarjima muqobillari lug‘ati, tarixiy leksika ko‘rsatkichlari va tarjima transformatsiyalari bo‘yicha statistik tahlil uchun asos bo‘ladi.

Ushbu tarjima birliklari, matn segmentlari va lingvistik annotatsiyalar o‘rtasidagi munosabatni yagona korpus modelida ifodalash orqali asoslash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘p tilli parallel korpus tarjima birliklarini tizimli o‘rganish, manba va tarjima matnlari o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarni aniqlash hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni real matn dalillari asosida tavsiflash uchun samarali ilmiy vositadir. “Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha matnlari misolida ko‘rilgan holatlar tarjima muvofiqligi faqat so‘zlarning lug‘aviy ekvivalentligi bilan belgilanmasligini ko‘rsatadi. Tarixiy birliklarning izohlanishi, frazeologik vositalarning transformatsiyasi, grammatik shakllarning o‘zgarishi va ayrim segmentlarning tarjimada aks etmasligi matnning umumiy mazmuniga ta’sir qilishi mumkin. Tahlillar asosida tarjima birliklarini leksik-semantik, grammatik-sintaktik, frazeologik va lingvomadaniy qatlamlarda annotatsiyalash, ularni moslashtirishning turli ko‘rinishlarini belgilash va har bir birlikni manba konteksti bilan bog‘lash zarurligi asoslandi. Bunday model tarixiy matn tarjimalarini chuqurroq o‘rganish, tarjima muqobillarini tizimlashtirish va korpus asosidagi statistik tahlillarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ko‘p tilli parallel korpusning ilmiy imkoniyati turli tillardagi matnlarni yonma-yon joylashtirish bilangina cheklanmaydi. Uning asosiy qiymati tarjima birliklarining shakliy va mazmuniy munosabatlarini qayd etish, kuzatilgan farqlarni izohlash hamda ularni qayta tekshirish va miqdoriy tahlil qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotga aylantirishida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Baker, M. Corpus linguistics and translation studies: Implications and applications. In M. Baker, G. Francis, & E. Tognini-Bonelli (Eds.), *Text and*

Technology: In Honour of John Sinclair (pp. 233–250). John Benjamins, 1993. https://doi.org/10.1075/z.64.15bak

2. Baker, M. Corpora in translation studies: An overview and some suggestions for future research. *Target*, 1995. *7*(2), 223–243. https://doi.org/10.1075/target.7.2.03bak

3. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent, 2002.

4. Babür Z. M. Vekayi. Babür’un hatıratı. – Ankara, 1987.

5. Бабыр З. М. Бабырнама.– Алматы: Нұрлы Әлем, 2022.

6. Mengliyev, B., & Hamroyeva, Sh. *Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish*. Globe Edit, 2020.

7. Muhammadiyeva, D. The semantic classification of phrases in “Baburname” and problems of their transfer in Turkish translations. URL: https://www.researchgate.net/publication/343578961

8. Muhammadiyeva, D. Problems related to the translations of “boburnoma” in turkic languages. Türkoloji, 2025. 121, 65-84. https://doi.org/10.59358/ayt.1619264

9. Muhammadiyeva, D. “Boburnoma” matni o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining tarjimaga asoslangan ekstralingvistik va intralingvistik ma’lumotlar bazasi. *Acta NUUz*, 2025. *1*(1.12), 312–315. https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.12.10294

10. Text Encoding Initiative Consortium. (n.d.). *TEI Guidelines: Linking, Segmentation, and Alignment*. https://www.tei-c.org/release/doc/tei-p5-doc/en/html/SA.html

11. Tiedemann, J. Parallel data, tools and interfaces in OPUS. In *Proceedings of the Eighth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2012)* (pp. 2214–2218). European Language Resources Association, 2012. https://aclanthology.org/L12-1246/

12. Yeshpanov, R., Polonskaya, A., & Varol, H. A. KazParC: Kazakh parallel corpus for machine translation. In *Proceedings of the 2024 Joint International Conference on Computational Linguistics, Language Resources and Evaluation (LREC-COLING 2024)* (pp. 9633–9644). ELRA and ICCL, 2024. https://aclanthology.org/2024.lrec-main.842/

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**